XII. O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha
o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(2022 yilning yanvar-dekabr oylari holatiga)

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi. 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3246,2 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Nukus shahrida 4330,8 ming so‘m (Respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 133,4 foiz), Taxiatosh tumanida 3659,6 ming so‘m (112,7 foiz) va Qo‘ng‘irot tumanida 3580,6 ming so‘m (110,3 foiz) ni tashkil etgan.

**Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash tarzida
hisoblangan daromad**
*(2022 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda
kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*

	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad mlrd.so‘m	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
Respublika bo‘yicha jami	**159 181**	**6 200,8**	**3 246,2**
shu jumladan:			
Sanoat	15 032	837,0	4 639,8
Qurilish	2 186	76,1	2 899,9
Savdo	917	32,5	2 951,3
Tashish va saqlash	7 295	378,7	4 326,1
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	77	2,8	3 064,5
Axborot va aloqa	1 134	50,5	3 709,1
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	2 807	293,0	8 698,9
Ta’lim	76 598	2 315,0	2 518,6
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	26 973	914,7	2 826,0
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 759	85,6	2 584,3
Boshqa faoliyat turlari	23 403	1 042,2	3 711,0

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



Respublika bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3246,2 ming so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 17,3 % ga o‘sgan.

O‘rtacha ish haqining yuqori miqdorlari iqtisodiy faoliyat turlaridan Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilikda 8698,9 ming so‘m (Respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,7 barobarga yuqori), Sanoat sohasida 4639,8 ming so‘m (Respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 42,9 % ga yuqori), Tashish va saqlash sohasida 4326,1 ming so‘m (Respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 33,3 % ga yuqori) hamda Axborot va aloqada 3709,1 ming so’m (Respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 14,3 % ga yuqori) ekanligi kuzatildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha
o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(yanvar-dekabr oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

	2021 yil	*2022 yil*	*O‘sish sur’ati, % da*
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	**2768,3**	**3246,2**	**117,3**
Nukus sh.	3669,1	4330,8	118,0
tumanlar:			
Amudaryo	2041,1	2275,2	111,5
Beruniy	2058,4	2461,7	119,6
Bo‘zatov	1873,6	2251,1	120,2
Qonliko‘l	2158,7	2636,7	122,1
Qorao‘zak	1973,6	2372,8	120,2
Kegeyli	2362,0	2779,1	117,7
Qo‘ng‘irot	3237,7	3580,6	110,6
Mo‘ynoq	2061,6	3013,7	146,2
Nukus	2455,5	3195,9	130,2
Taxiatosh	2968,1	3659,6	123,3
Taxtako‘pir	2154,5	2325,6	107,9
To‘rtko‘l	2249,5	2662,4	118,4
Xo‘jayli	2288,5	2806,5	122,6
Chimboy	2215,4	2599,6	117,3
Shumanay	2200,3	2446,8	111,2
Ellikqal’a	2323,6	2649,7	114,0

Ish haqi. 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ish haqi tahlili quydagilarni ko‘rsatmoqda.

Ta‘lim sohasida 1533 ta mussasada 76 598 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 48,1%) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 2 315,0 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 37,3 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2518,6 ming so‘mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 14,6 % ga o‘sgan.

Ta‘lim iqtisodiy faoliyati bo‘yicha
o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2022 yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Sanoat iqtisodiy faoliyat turida **35** ta korxonada **15032** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 9,4 % ni) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **837,0** mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulishi 13,5 % ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **4639,8** ming so‘mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 7,4 % ga o‘sgan.

Sanoat iqtisodiy faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022 yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so‘m)



Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini respublika hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida 8384,6 ming so‘mni (Respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 180,7 % yuqori), Taxiatosh tumanida 7094,0 ming so‘mni (152,9 %) va Nukus tumanida 5032,9 ming so‘mni (108,5 %) tashkil etgan bo‘lsa, Chimboy tumanida 1602,8 ming so‘mni (34,5 %), Beruniy tumanida 1625,9 ming so‘mni (35,0 %), Ellikqal‘a tumanida 1642,9 ming so‘mni (35,4 %) hamda Qonliko’l tumanida 1751,3 ming so‘mni (37,7 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida **92** ta muassasada 26973 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 16,9 % ni) xodim ishlagan bo‘lib ularga hisoblangan ish haqi fondi 914,7 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 14,8 % ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2826,0 ming so‘mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 22,6 % ga o‘sgan.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2022 yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so‘mda)



Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini respublika hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, Qoraqalpog‘istonda ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qonliko‘l tumanida 3338,2 ming so‘mni (respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 118,1 %), Chimboy tumanida 3117,7 ming so‘mni (110,3 %), Beruniy tumanida 3060,1 ming so‘mni (108,3 %) va Xo‘jayli tumanida 3028,3 ming so‘mni (107,2 %) tashkil etgan bo‘lsa, Bo‘zatov tumanida 2374,5 ming so‘mni (84,0 %), To‘rtko‘l tumanida 2505,5 ming so‘mni (88,7 %) va Qo‘ng‘irot tumanida 2509,3 ming so’mni (88,8 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turida **76** ta muassasada 2807 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,8 % ni) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 293,0 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 4,7 % ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8698,9 ming so‘mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 31,4 % ga o‘sgan.

Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(*2022 yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘mda)*



Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini respublika hududlari bo‘yicha Qoraqalpog‘istonda ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida 9863,9 ming so‘mni (respublikadaga o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 113,4 %) va Taxiatosh tumanida 9144,9 ming so‘mni (105,1 %) tashkil etgan bo‘lsa, Taxtako‘pir tumanida 6967,6 ming so‘mni (80,1 %), Chimboy tumanida 6997,2 ming so‘mni (80,4 %) va Shumanay tumanida 7001,8 ming so‘mni (80,5 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati

(2022 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari % da)



ming so'm

Sanoat 4639,8

Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik 8698,9

Qurilish 2899,9

Ta‘lim 2518,6

Savdo 2951,3

Sog‘liqni saqlash va Ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish 2826,0

Tashish va saqlash 4326,1

San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish 2584,3

Axborot va aloqa 3709,1

Boshqa iqtisodiy faoliyat turlari 3711,0